

MAHALLA FUQAROLAR YIG'INLARIDA BANDLIKNI TA'MINLASH VA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Anvarov Ortiq Abror o'g'li

Jizzax Politexnika instituti Buxgalteriya
hisobi va audit yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Qahhorova Mashhura Baxrom qizi

O'zMU Jizzax filiali iqtisodiyot yo'nalishi bakalavr 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18810783>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mahalla fuqarolar yig'inlarining bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni hamda institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. So'nggi yillarda mahallabay ishlash tizimi, hokim yordamchilari instituti va kambag'allikni qisqartirish siyosati doirasida mahallalarning iqtisodiy funksiyalari sezilarli darajada kengaydi.

Kalit so'zlar: mahalla fuqarolar yig'ini, bandlik, tadbirkorlik, mahallabay ishlash, institutsional mexanizm, kambag'allikni qisqartirish, iqtisodiy rivojlanish.

Kirish. Yangi O'zbekiston sharoitida mahalla fuqarolar yig'inlari ijtimoiy boshqaruvning asosiy bo'g'ini sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga faol jalb etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar mahallalarda yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan.

Mahallabay ishlash tizimining joriy etilishi har bir oilaning iqtisodiy holatini individual o'rganish va manzilli yordam ko'rsatish imkonini berdi. Shu bois mahalla institutining bandlik va tadbirkorlik sohasidagi roli ilmiy jihatdan tadqiq etilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi PF-209-sonli farmoni bilan Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga ko'ra mahalla yettiligining vazifalari quyidagicha belgilandi.

Mahalla raisining asosiy vazifalari

1. Mahalla obodligini ta'minlash, shu jumladan, "Obod mahalla", "Obod ko'cha", "Obod xonadon" mezonlarini joriy etishda aholining faol ishtiroki va mas'uliyatini oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida daraxt va buta ko'chatlari ekish bo'yicha targ'ibot ishlarini amalga oshirish.

2. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni targ'ib qilish, sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni saqlash, to'y-marosimlarni isrofgarchiliklarsiz ixcham o'tkazilishini ta'minlash.

3. Mahallaga biriktirilgan davlat organlari vakillarini aholi muammolarini hal etishga safarbar etish va muammolarga yechim topishini ta'minlash.

4. Mahallada faoliyat yurituvchi hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, profilaktika va soliq inspektorlari, ijtimoiy xodim faoliyatiga umumiy rahbarlik qilish, mahallani har tomonlama rivojlantirishda ular imkoniyatlaridan samarali foydalanish.

5. Mahalla hududida qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish, shu jumladan, ta'lim, tibbiy xizmat, sport, savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.

Hokim yordamchisining asosiy vazifalari

1. Doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish hamda bandligini ta'minlash choralari ko'rish.

2. Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida kredit va subsidiyalar ajratilishida ko'maklashish.

3. O'zini o'zi band qilgan hamda tashabbuskor fuqarolarning tadbirkorlikka qiziqishlarini aniqlash, ularning kichik biznes subyektiga aylanishiga yordam berish.

4. Aholiga ijara huquqi asosida ajratilgan yer maydonlari va tomorqalarda ekilgan ekinlar va yetishtirilgan mahsulotlar hisobini yuritadi, shuningdek, dehqon xo'jaliklari bilan ekspertyor, broker va qayta ishlovchi korxonalarining hamkorligini tashkil etadi.

5. Mahallalarda kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha mikroloiyahalar manzilli dasturini shakllantiradi va loyihalarni amalga oshirishga to'siq bo'layotgan muammolarni hal etishga ko'maklashadi.

6. Mahalladagi bo'sh turgan bino-inshootlar va yer maydonlarini aniqlab, ularni belgilangan tartibda auksion savdolariga chiqarish choralari ko'radi.

7. Mahalladagi kambag'al oilalarning har biri uchun "individual dastur" ishlab chiqadi va ularning daromadini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi.

Yoshlar yetakchisining asosiy vazifalari

1. Yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, jamiyat uchun foydali va umummilliy manfaatlarga xizmat qilishga qaratilgan loyihalarni mahalla darajasida amalga oshirish.

2. Yoshlarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning iqtidori va iste'dodini ro'yobga chiqarishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish, "Besh tashabbus olimpiadasi"ni yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish.

3. Mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning tadbirkorlik ko'nikmalari va o'z taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish orqali bandligiga ko'maklashish.

4. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga ko'rsatiladigan yordamning ijtimoiy hamkorlik tamoyiliga asoslanishini ta'minlash.

Xotin-qizlar faolining asosiy vazifalari

1. "Sog'lom oila — sog'lom jamiyat" tamoyillarini targ'ib qilish, xususan yaqin qarindoshlar o'rtasidagi va erta nikohning oldini olish, reproduktiv salomatlikni yaxshilash, oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish.

2. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashish.

3. Xotin-qizlarning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, ushbu muammolar yuzasidan davlat organlari va tashkilotlarga murojaat qilish, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatishni ijtimoiy xodim bilan birgalikda tashkil etish.

4. Xotin-qizlar o'rtasida ijtimoiy profilaktika va moslashtirish ishlarida hamkorlik qilish, tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratishda ishtirok etish.

Profilaktika inspektori

mahallada huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash va xavfsiz muhitni ta'minlash, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqlarini amalga oshirishda ko'maklashishga;

Ijtimoiy xodim

og'ir ahvolga tushib qolgan va og'ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlariga qarab, kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko'rsatish va yordamlarni tashkil etishga;

Soliq inspektori

tadbirkorlarga soliq xizmatlarini ko'rsatish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni undirish va mahalla budjetining daromadini shakllantirishga mas'ul bo'ladi.

2026 yilning 23-yanvar kuni muxtaram yurtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Shavkat Miromonovich raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bir qator vazifalar belgilanib berildi. Jumladan kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash yuzasidan mamlakatimiz bo'yicha 903 ta “Og'ir” mahallaning bosh rejasini ishlab chiqish, mavjud muammolarini hal etishda shaharsozlik, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik yechimlarni xal etishda ilmiy asoslangan xulosalar taqdim etilishi belgilanib berildi.

Ushbu topshiriqning ijrosi yuzasidan Jizzax viloyati, Baxmal tumani, Madaniyat mahalla fuqarolar yig'inida mahallani 2026 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha o'rganish olib borganimizda quyidagilar aniqlandi. Mahallada xonadonlar soni 562 ta bo'lib, oilalar soni 842 tani tashkil etadi. Jami istiqomat qiluvchi aholi soni 3232 nafar bo'lib, shundan 1584 nafari ayollar, 963 nafari yoshlar, 73 nafar migrantlar mavjud.

Mahallada ishsizlar soni – 71 ta, ishsizlik darajasi 4,9%, kambag'al oilalar soni - 46 ta, kambag'allik darajasi 5,5 %ni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, mahalla fuqarolar yig'inlari bugungi kunda nafaqat ijtimoiy boshqaruv organi, balki hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional bo'g'iniga aylangan. Jizzax viloyati Baxmal tumani Madaniyat MFY misolida olib borilgan o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, mahalla darajasida mavjud ishsizlik va kambag'allik ko'rsatkichlari individual ishlash, kichik biznesni rivojlantirish va iqtisodiy faollikni oshirish orqali qisqartirilishi mumkin. Bu esa mahalla institutining real iqtisodiy natijadorligini tasdiqlaydi. Kelgusida mahalla darajasida iqtisodiy konsalting xizmatlarini rivojlantirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, raqamli monitoring va tahlil tizimini joriy etish, bank, soliq va bandlik organlari bilan hamkorlikni institutsional mustahkamlash mahallaning iqtisodiy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz. Umuman olganda, mahalla fuqarolar yig'inlari hududiy bandlikni ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirishda samarali institutsional mexanizm sifatida shakllanmoqda. Ularning iqtisodiy salohiyatini yanada mustahkamlash orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishga erishish mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 2026-yilda amalga oshirilishi lozim bo'lgan asosiy vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi berilgan topshiriqlar. 23.01.2026 yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi PF-209-sonli Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi. 2024–2025-yillarga mo'ljallangan kambag'allikni qisqartirish va bandlik dasturi. Toshkent, 2024.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risidagi № 334-sonli Qarori. 13.06.2024-yil.